



PRINCIPLES OF SPIRITUAL DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN

Sarvar Suleymanov

Researcher

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Third Renaissance, spiritual development, reform, youth policy, education, upbringing, mass media.

Received: 04.03.25

Accepted: 06.04.25

Published: 08.04.25

Abstract: The article presents the socio-philosophical foundations of the principles of spiritual development of New Uzbekistan with scientific evidence. This article analyzes the concept of spiritual development of New Uzbekistan and its main ideas. It also highlights the theoretical foundation, practical significance and future role of the concept.

YANGI O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Sarvar Suleymanov

tadqiqotchi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, ma'naviy taraqqiyot, islohot, yoshlar siyosati, ta'lim, tarbiya, ommaviy xborot vositalari.

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot tamoyillari ijtimoiy-falsafiy asoslari ilmiy dalillar bilan ko'rsatilgan. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot konsepsiyasi hamda uning asosiy g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konsepsiyaning nazariy poydevori, amaliy ahamiyati va istiqboldagi roli yoritiladi.

ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ПРИНЦИПЫ

Сарвар Сулейманов

исследователь

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Третье	Аннотация:
Возрождение, духовное развитие, реформа, молодежная политика, образование, воспитание, средства массовой информации.	социально-философские основы принципов духовного развития Нового Узбекистана с научным обоснованием. В статье анализируется концепция духовного развития Нового Узбекистана и ее основные идеи. Также освещаются теоретическая основа, практическое значение и будущая роль концепции.	В статье представлены основы принципов духовного развития Нового Узбекистана с научным обоснованием. В статье анализируется концепция духовного развития Нового Узбекистана и ее основные идеи. Также освещаются теоретическая основа, практическое значение и будущая роль концепции.

Kirish. O‘zbekiston mustakillikka erishgandan so‘ng, jamiyat taraqqiyoti va rivoji uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochildi. Ayniqsa, keyingi yillarda davlat boshqaruvining turli jabxalarida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

2016-yil – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi yangilanish jarayonlarining amaliy ifodasiga aylandi. Ushbu konsepsiya faqat iqtisodiy yoki siyosiy jihatlarinigina emas, balki milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatni rivojlantirish, yosh avlod tarbiyasi hamda jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Yangi O‘zbekiston” iborasi avvalo mustaqillik yillarida shakllangan davlat va jamiyat boshqaruvining yangi davrini anglatadi. Ushbu davrda:

Islohotlar kengayishi: Davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni kuchaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kengroq ta’minlash bo‘yicha qonunlar va qarorlar qabul qilindi.

Ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar: Ta’lim, tibbiyot, madaniyat va fan sohalariga alohida e’tibor qaratilib, ularning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Globalashuv va milliy manfaatlar uyg‘unligi: Zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, iqtisodiy integratsiya va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik jarayonida milliy manfaatlar va qadriyatlarga tayangan holda rivojlanish siyosati kuzatilmoqda.

Tarixiy nuqtayi nazardan, xalqimizda ma’naviyatga alohida e’tibor berish an‘anasi qadim zamonlardan buyon shakllangan. Abu Nasr Forobiy, Axmad Fargoniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning ilm-ma’rifatga bolgan mexr-muhabbati nafakat Sharq, balki butun dunyo tamaddunida ulkan iz qoldirgan. Shu bois ham bugungi kunda Yangi O‘zbekiston konsepsiya jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti masalasi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot bo‘yicha olib borilayotgan siyosat bir necha nazariy omillarga tayanadi:

Milliy g'oya va mafkuraviy tamoyillar: Yangi O'zbekiston konsepsiyasidagi ma'naviy jixatlarning negizida milliy g'oya, tarixiy va madaniy meros, xalq an'analari, milliy urf-odatlar yotadi. Shu orqali yoshlarda milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash va Vatanga muhabbat tuyg'ulari mustahkamlanadi.

"Sivilizatsiyalararo" dialog: Globallashuv jarayonida O'zbekiston dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi sifatida turli madaniyatlar bilan hamkorlik qilishda o'zining betakror qadriyatlarini, ilmiy va madaniy boy merosini namoyon etishi zarur. Bu jarayonda ochiklik, muloqot madaniyati va o'zaro hurmat tamoyillari asosida rivojlanish ko'zda tutiladi.

Shaxs erkinligi va jamiyat mas'uliyati: Manaviy taraqqiyotda shaxsning mustaqil fikrlashi, ongli pozitsiyasini ifoda etishi, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi qo'llab-quvvatlanadi. Bunda yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ijtimoy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Yangi Uzbekistonning ma'naviy taraqqiyot konsepsiyasi quyidagi asosiy g'oyalarga tayangan xolda rivojlanmoqda:

a) Milliy g'urur va o'zlikni anglash.

Milliy g'oya va qadriyatlarimizni arash, boyitish, avloddan-avlodga meros qilib qoldirish ma'naviy taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbek xalqining buyuk ajdodlari yaratgan madaniy merosga munosib holda yoshlarda milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish maksadida:

- ta'lim muassasalarida tarix, adabiyot va ma'naviyat fanlarini modernizatsiya qilish;
- aholi o'rtasida vatanparvarlik tadbirlari, targ'ibot-tashviqot ishlari va ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish;
- tarixiy va madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya va saqlash ishlarini kengaytirish, ularni yoshlar orasida keng targ'ib etish.

b) Tarixiy meros va madaniy an'analarni tiklash.

O'zbekistonda turli davrlarda shakllangan milliy madaniy meros, urf-odatlar va an'analar jamiyatimizning ajralmas bo'lagidir. Ular milliy o'zlikni saqlab qolish, butun dunyoga tanitish, yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois:

- Madaniy-ma'rifiy markazlar tashkil etish, mavjudlarini rivojlantirish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- meros festivallari, adabiy kechalar, xalq o'yinlari, xalq hunarmanchiligi ko'rgazmalari orqali an'analimizni asrab-avaylash;
- yangi avlod tadqiqotchilarini jalb qilish orqali ilg'or g'oyalarni boy tarixiy merosimiz bilan uyg'unlashtirish kabi chora-tadbirlar belgilab berilmokda.

c) Ma'rifiy innovatsiyalar va zamonaviy ilm-fan.

Zamonaviy dunyoda milliy ma'naviyatni rivojlantirish ilm-fan va innovatsion yondashuvlarsiz amalga oshmaydi. Bu borada quyidagi masalalar dolzarbligicha qolmoqda:

Ta'lim sifatini oshirish: Fanlararo integratsiya, raqamli texnologiyalar, masofaviy o'qitish imkoniyatlarini keng joriy qilish orqali yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish;

Ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash: davlat grantlari, xususiy investmentlar va xalqaro hamkorlik doirasida fundamental va amaliy tadqiqotlarga e'tibor qaratish;

Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini targ'ib qilish: olimlar, tadqiqotchilar va malakali mutaxassilar bilan yoshlar o'rtasida muntazam muloqot tadbirlarini o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ilm-fan ahamiyatini keng targ'ib etish.

d) Oila va jamiyat tarbiyasining o'rni.

O'zbekistonda oila har doim jamiyatning asosiy bog'ini hisoblanib, yosh avlod tarbiyasi va ma'naviy qadriyatlarning uzluksiz davomiyligini ta'minlovchi muhim institut sifatida e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib:

oila mustaxkamligini qo'llab-quvvatlash va moddiy-ma'naviy jihatdan yordam berish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqiladi;

ota-ona masuliyati va tarbiya madaniyatini yuksaltirishga doir huquqiy normalar kuchaytiriladi;

ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularning tadbirkorlik, ilm-fan va boshqa sohalaridagi faolligini rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tatbik etiladi.

e) Yoshlar siyosati.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasida yoshlar davlat siyosatining markaziy sub'ekti sifatida qaraladi. Manaviy taraqqiyot nuqtai nazaridan yoshlar siyosatining quyidagi yo'nalishlari ustuvor hisoblanadi:

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish: Yoshlar parlamenti, Yoshlar forumi, debatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kengaytirish orqali ularning jamiyatdagi rolini mustakamlash;

Mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish: Adabiyot, sport, san'at va innovatsion loyihalarda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, grantlar ajratish, imkoniyatlar yaratish;

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat: yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish, giyoxvandlik, zo'ravonlik va terrorizm kabi illatlarga karshi kurashda faol ishtirok etish.

Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyot konsepsiyasini hayotga tadbiiq etish uchun quyidagi amaliy choralar qo'llanilmoqda:

Davlat dasturlari va qonun hujjatlari: ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlar bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilib, ular doirasida tegishli qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, "Yoshlar – kelajagimiz", "Oila – jamiyat ustuni" kabi maqsadli dasturlar buning yorqin misolidir.

Ta'lim va tarbiya tizimini isloh qilish: maktabgacha ta'limdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan barcha bosqichlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani kuchaytirish, o'quv dasturlarini milliy va zamonaviy talablar asosida takomillashtirish choralari ko'rilmogda.

Ommaviy axborot vositalarining roli: televideniye ko'rsatuvlar, radio eshittirishlar, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar va ma'naviyatga oid mavzular muntazam yoritilmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik: Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla fuqarolar yig'inlari, jamoat fondlari va boshqa ijtimoiy institut bilan hamkorlikda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xalkaro hamkorlik: Madaniy diplomatiya, xalqaro ilmiy anjumanlar va konferensiyalar orqali O'zbekistonning milliy madaniy merosi, ilm-fan yutuqlari, milliy qadriyatlari jahonga tanitilmoqda.

Ma'naviy yuksalish va milliy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro dialektik aloqadorlik yangi, ilg'or qadriyatlarni qaror topishiga, jamiyat barqarorligiga, shaxs kamolotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa pirovardida:

- yoshlarni milliy o'zligini anglashi, milliyligini his etishi uchun ajdodlardan qolgan meros va qadriyatlarni ularga muntazam tushuntirib borish zarurligini talab etadi. Mazkur jihatlarni bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar misolida ko'rsatib berish maqsadga muvofiq;

- xalq meroslari va qadriyatlari ma'naviy ehtiyojlarning yuksalib borishiga asos bo'lar ekan, bu yo'lda ularni yangi bir bosqichga ko'tarish, ularning ta'siridan foydalangan holda yangi avlodni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, ularni kosmopolitizm va ommaviy madaniyat ta'siridan himoya etishga vosita bo'ladi;

- vatanimiz mustaqilligi xalqimiz uchun ma'naviy yuksalish va milliy taraqqiyot uchun imkoniyat yaratdi. Chunki, aynan mustaqillik davridagina xalq ma'naviyatini tiklash, yangilash va milliy taraqqiyot modelini tanlash ishlarining nazariy asoslari yaratildi;

- xalqimiz tafakkurida uning o'tmishi va bugunini bog'lovchi, kelajak hayot uchun umid, istak, ishtiyoq beruvchi tarixiy xotira shakllandi. Milliy g'oyaga asoslangan, milliy davlat va milliy taraqqiyot modelida tarixiy xotiraning shakllantirilishi eng asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Tarixiy xotira millatni bir hudud, tarix, jarayon doirasida uyg'unlashtira oladigan, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik xususiyatlariga, farovonlik va ozodlik, inson qadr-qimmatini, milliy mustaqillik ideallariga urg'u beradigan, kelgusidagi sa'y-harakatlarni mana

shunday tamoyillar asosida yoʻnaltira oladigan qudratli kuchdir;

- maʼnaviy yuksalish jarayoni avvalo insonning oʻz-oʻzini anglashi, milliy ong, manfaatlar, maqsadlar va ularning birligini seza olishi, millat tarixini, Vatan tarixini, milliy urf-odatlar, anʼanalarni bilish va ularga amal qilish kabi tomonlarni oʻz ichiga oladi. Ayniqsa koʻpmillatli boʻlgan bizning mamlakatimizda avvalo maʼnaviy ehtiyojni qondirish milliy taraqqiyotga erishishdagi muhim omil hisoblanadi.

Birinchi navbatda, Yangi Oʻzbekiston maʼnaviy taraqqiyotida milliy oʻzlikni anglash va milliylikka tayanib, umuminsoniy qadriyatlar bilan uygʻunlashgan mafkuraviy asos yaratish muhim oʻrin egallaydi. Jamiyatning maʼnaviy yaxlitligini taʼminlash uchun millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni saqlash va rivojlantirish asosiy tamoyil sifatida eʼtirof etilmoqda.

Ikkinchidan, yangi Oʻzbekiston maʼnaviy taraqqiyotida inson qadri va shaxs erkinliklari birinchi oʻringa qoʻyilgan. Bu qadriyatlar demokratik islohotlarning asosiy yoʻnalishi boʻlib, insonparvarlik, bagʻrikenglik va oʻzaro hurmat kabi tamoyillarni oʻz ichiga oladi.

Uchinchidan, maʼnaviy taraqqiyotning asosiy xususiyatlaridan biri – bu yosh avlodning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasiga alohida eʼtibor berishdir. Bu tarbiya tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, shaxsning oʻz-oʻzini anglashi, oʻzini takomillashtirishi va hayotdagi masʼuliyatlik hissini shakllantirishga qaratilgan.

Toʻrtinchidan, “Yangi Oʻzbekiston”ning maʼnaviy taraqqiyot konsepsiyasi zamonaviy taʼlim tizimini qayta koʻrib chiqish va uning tarbiyaviy mazmunini boyitishni talab etadi. Shuning uchun bu sohada davlat standartlari va qonunchilik hujjatlarida maʼnaviy-axloqiy tarbiya masalalariga katta eʼtibor berilmoqda.

Beshinchidan, maʼnaviy taraqqiyotda ijtimoiy masʼuliyat, fuqarolik faolligi va huquqiy madaniyatning oshirilishi muhim ahamiyatga ega boʻlmoqda. Bu, oʻz navbatida, korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqiy nigilizmni bartaraf etish va aholining ijtimoiy hayotida adolatlik prinsiplarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi Oʻzbekiston maʼnaviy taraqqiyot tamoyillari oʻzining milliyligi, umuminsoniy va zamonaviy qadriyatlarni birlashtirishi bilan oʻzgacha ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillarning ijtimoiy-falsafiy tahlili Oʻzbekistonning zamonaviy taraqqiyotida maʼnaviyatning oʻrni va ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, doʻstona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – T.: “Oʻzbekiston”, 2018. -64 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulugʻ xalqning ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. 3-jild. – T.: “Oʻzbekiston”, 2019.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. –T.: Oʻzbekiston. 2021.
4. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: “Шарқ”, 2004.